



**INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA SO'ROQ-BUYRUQ GAPLAR**

ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ- ПОБУДИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В  
АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

INTERROGATIVE-IMPERATIVE SENTENCES IN ENGLISH, RUSSIAN  
AND UZBEK LANGUAGES

*Ochilova Habiba Akramovna, Qarshi davlat universiteti*

*Lingvistika (ingliz tili) kafedrasida oqituvchisi*

*Ochilova Habiba Akramovna, Karshinskii gosudarstvennyi universitet*

*Преподаватель кафедры лингвистики (английского языка)*

*Ochilova Khabiba Akramovna, Karshi State University*

*Teacher at the Department of Linguistics (English)*

**Аннотация:** Мақоллада о'zbek, ingliz va rus tillarida so'roq-buyruq gaplarning o'rganilishi hamda qiyosiy tillarning og'zaki va yozma nutqida mavjud bo'lgan xususiyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida so'roq-buyruq gaplarning ifodalanish usullari va qiyosiy tillarda bu turdagi gaplarning o'xshashliklari va farqlari ko'rib chiqiladi. Xususan, bir nechta o'zbek, rus va ingliz olimlarining darslik, qo'llanma va asarlarida uchraydigan so'roq-buyruq gaplarning ifodalanish usullari misollar bilan keltirib o'tiladi. Ayniqsa, Amerika yozuvchisi James Pattersonning "When The Wind Blows" nomli asarida uchraydigan so'roq gapning ba'zi turlari, asosan, so'roq-buyruq gaplarning differensial-kontekstual xarakterdagi ifodalanishi, rus va ingliz tilidagi tarjimasiga ilmiy yondashib, pragmatik jihatdan e'tibor qaratiladi. Mazkur maqolada so'roq-buyruq gaplarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi konseptual mohiyatiga aniqlik kiritilgan, structural va funksional jihatlari ochib berilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается изучение вопросительно-побудительные предложения предложений в узбекском, английском и русском языках, а также особенности устной и письменной речи сравнительные языки. В ходе исследования рассматриваются способы выражения вопросительных предложений, а также сходства и различия этих типов предложений в сравнительных языках. В частности, с примерами приводятся способы выражения вопросительно- побудительные предложения, встречающиеся в учебниках, пособиях и трудах ряда узбекских, российских и английских ученых. В частности, некоторые виды вопросительных предложений, встречающиеся в произведении американского писателя Джеймса Паттерсона



«Когда дует ветер», преимущественно являются выражением вопросительно-побудительные предложения дифференциально-контекстного характера, имеют научный подход к русскому и английскому языку. переводы, и прагматическое внимание сосредоточено. В данной статье уточняется концептуальная сущность вопросительно-побудительные предложения в английском, русском и узбекском языках, раскрываются структурные и функциональные аспекты.

**Abstract:** The article discusses the study of interrogative-imperative sentences in Uzbek, English, and Russian languages, as well as the features of spoken and written speech of comparative languages. During the research, the ways of expression of interrogative-imperative sentences and the similarities and differences of these types of sentences are considered in comparative languages. Principally, the methods of expression of interrogative-imperative sentences found in textbooks, manuals and works of several Uzbek, Russian and English scholars are given with examples. In particular, some types of interrogative sentences found in the work of the American writer James Patterson, "When The Wind Blows", mainly the expression of interrogative-imperative sentences in a differential-contextual nature, have a scientific approach to the Russian and English translations, and pragmatic attention is focused in the research.

In this article, it is clarified the conceptual nature of interrogative-imperative sentences in English, Russian and Uzbek languages, and are revealed their structural and functional aspects.

**Kalit so'zlar:** so'roq-buyruq gaplar, qiyosiy tillar, og'zaki nutq, yozma nutq, o'xshashliklar, farqlar, lingvistik xususiyat.

**Ключевые слова:** вопросительно - побудительные предложения, сравнительные языки, устная речь, письменная речь, сходство, различие, языковые особенности.

**Key words:** interrogative-imperative sentences, comparative languages, oral speech, written speech, similarities, differences, linguistic features.

## KIRISH

O'zbek tili grammatikasining eng katta bo'limlaridan biri bo'lgan Sintaksis so'zlarning va gaplarning o'zaro aloqasini, so'z birikmasi va gaplarni tashkil qilgan bo'laklarning xususiyatlarini o'rganadi. Gap ma'lum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil etadi. Til, nutq orqali kishilar o'z fikrlari, maqsadlari, his-hayajonlarini ifodalaydilar. Fikr turlicha ifodalanadi: fikr sodda yoki qo'shma gaplar



orqali, darak, so'roq, buyruq, undov gaplar orqali, to'liq yoki to'liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Gap qanday shaklda bo'lmasin, unda kishining ma'lum maqsadi aks etadi, ya'ni his-hayajon yoki so'roq ma'noni ifodalovchi gaplar ham bundan mustasno emas. Gapning asosiy maqsadi uch shaklda namoyon bo'ladi: axborot beriladi (darak gap), ma'lumot so'raladi (so'roq gap), da'vat etiladi, undaladi, buyuriladi (buyruq gap).

So'roq gaplar turli-tuman ma'nolarni, his-tuyg'ularni va so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

So'roq gaplar mavzusi ostida so'roq-buyruq gaplarning tarkibiy va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinar ekan, avvalo o'zbek tilida so'roq-buyruq gapning xususiyatlari ya'ni, so'roq-buyruq ma'noni bildirishi bilan birga hayrat, taajjub, turli hayajon va tuyg'ular, shubha, gumon, taxmin, darak kabi ma'nolarni ham ifodalashi izohlanib, ingliz, rus va o'zbek tillarida o'rganilishidagi farqlar hamda o'xshashliklar bayon qilinadi.

O'zbek tilida so'roq-buyruq gaplarda so'roq yo'li bilan buyurish o'ttenkasi aks ettiriladi:

- *Darsga o'z vaqtida kelmayсанми?* (A. G'ulomov., M.Asqarova)

Rus tilida so'roq-buyruq gaplar вопросительно-побудительные предложения deb yuritilib, o'zbek tilidagi so'roq-buyruq gaplarning semantik xususiyati bilan deyarli bir xil ma'noda qo'llaniladi. Unga ko'ra, so'roq yo'li bilan buyruq ma'no ifodalanadi:

- *Да замолчишь ты, наконец?!*

P. F. Fortunatov, A.M. Peshkovskiy kabi olimlar so'roq gaplarni nutqdagi buyruq turlaridan biri deb hisoblashgan. I.P. Raspopov so'roq va buyruq ma'noli jumlar o'rtasidagi ma'lum bir o'xshashlik haqida gapiradi: so'roq jumlarida javob berishga undaydigan iroda ifodasi ham mavjud. L.F. Berdnikni ta'kidlashicha, "Ba'zi so'roq gap buyruq jumlagacha o'xshaydi, chunki u buyurish ifodasini o'z ichiga oladi, javob talab qiladi va lingvistik jihatdan anglashiladi":

- *Куда ты идешь? – Скажи, куда ты идешь.* ( Qayerga ketayapsiz? Qayerga ketayotganingizni aytin)

A.I. Smirnitskiyning fikricha, so'roq-buyruq gaplar bevosita harakatga turtki beradi:

- *Не пойти ли нам в театр?* (Biz bilan teatrga bormaysanmi?)



### **Tahlil va natijalar**

Amerikalik yozuvchi James Pattersonning “When The Wind Blows” asarida keltirilgan quyidagi parchada so’roq gapning ba’zi turlari va so’roq-buyruq gapning konseptual mohiyatini ko’rish mumkin:

“He brushed off his slouchy hat, and a lot of sandy-blond hair shifted and gleamed. Then he was standing in front of me, all six two of him, like a glossy photo from an L.L. Bean catalog, or maybe Eddie Bauer’s. Very serious-looking, though.”

“I’ve come from Hollander and Cowell.” “You’re a real estate broker? I croaked.”

“Did I catch you at a bad time?” he asked. “Sorry”. At least he was polite.

“What makes you think that?” I asked. I was all too aware that my jeans were soaked in blood. My sweatshirt looked like a Jackson Pollock painting.

“I would hate to see the guy who lost the fight”, he said, surveying my appearance. “Or do you dabble in witchcraft?”

“Some people call it veterinary medicine”, I said. “So, what’s this about? Why did Hollander and Cowell send you at this time of night?”

Ushbu parchani tahlil qilish jarayonida so’roq gapning quyidagi turlari va so’roq-buyruq gapning pragmatikasiga duch kelamiz:

Matndagi birinchi so’roq gap “You’re a real estate broker?” (Siz ko’chmas mulk vositachisimisiz? Vositachisi emassizku.) da ritorik so’roq gap ifodalangan bo’lib, savolning javobi ohang orqali anglashilgan. Shuningdek, parchada so’roq gapning sof so’roq, so’roq-inkor, so’roq-taajjub, so’roq-tashvish, so’roq-kinoya semalari aks etgan bo’lib, so’roq-buyruq gap turi quyidagi differensial struktura orqali ifodalangan:

“Or do you dabble in witchcraft? (Siz jodugarlik bilan shug’ullanasizmi endi?! Jodugarlik bilan shug’ullanmang!) Ushbu gapning pragmatikasiga e’tibor berilsa, aslida muallif “Jodugarlik bilan shug’ullanmang!” deb qat’iy buyruq beryapti. Fakt shundaki, ushbu so’roq gapda buyruq semasi kuchli.

Rus olimi O.A.Malaxova olib borgan ilmiy ishida ta’kidlaganidek, “So’roq-buyruq gaplar sof so’roq ma’nosini, maslahat, iltimos, taklif kabi ma’nolarni ifodalab, shu ko’rinishdagi vaziyatlarda so’roq gap adresat hisoblanadi”.

Rus tili grammatikasida so’roq-buyruq gaplar haqida quyidagi talqin keltiriladi: So’roq-buyruq gaplar turtki berishning turli ko’rinishlarini ifodalaydi: a) kategorik; b) neytral; c) yumshatilgan turtki; shu maqsadga ko’ra iltimos, maslahat, taklif va ta’qiq ma’nosini bildirish uchun qo’llaniladi, ammo buyruq, buyruq-ko’rsatma va



chaqiruv ma'nosiga ega bo'lmaydi. Birinchidan, buyruqning so'roq shakli yumshatilgan buyruqni ifodalash uchun ishlatiladi:

-*Would you like a cigarette? (Siz sigaret chekasizmi?)* Ammo boshqa tomondan savol shaklidagi turtki yanada kategorik eshitalishi mumkin, ya'ni yumshoq tahdidni ifodalaydi.

### **Muhokama**

Ushbu maqolada so'roq-buyruq gaplarning ingliz tilidagi xarakterli jihatlarini talqin qilishda asosan Amerika yozuvchisi James Pattersonning *When The Wind Blows* (Shamollar esganda) asarida uchraydigan so'roq-buyruq gaplarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qildik. Ma'lumki, o'zimizga noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida axborot olish uchun so'roq gap shaklini tanlaymiz. So'roq-buyruq gaplar gapning ohangiga ko'ra turli ma'nolarni, buyruqni, iltimosni anglatib, bu xususiyat rus, ingliz va o'zbek tilidagi misollar yordamida muhokama qilindi.

-*“Will you get out of the room, Tinkerbell?” Matthew said angrily, “or will I throw away you?”* [ J.Patterson. *When the Wind Blows*. p.27]

-*“Xonadan chiqib ketasanmi, Tinkerbel?” Matthew jahl bilan dedi, “yoki o'zim uloqtiraymi seni?”*

-*“Ты выйдешь из комнаты, Тинкербелл?” — сердито сказал Мэтью, “или мне тебя бросить?”*

Ingliz tilida so'roq-buyruq gaplarni ifodalashning eng keng tarqalgan usullari Will/Would, Can/Could + S+Inf. Strukturasi orqali ifodalanadi:

-*“Will you get me a taxi, David?”* [ J.Patterson. *When the Wind Blows*. p.123]

-*“Menga taksi chaqirib berasanmi, David? (Menga taksi chaqirib ber!)*

-*“Ты можешь вызвать мне такси, Дэвид?” (ВЫЗОВИ МНЕ ТАКСИ!)*

-*“Would you mind telling me what uncle feels about it?”* [14, p. 435].

-*“Amakingiz bu haqida qanaqa fikrda ekanini ayta olasizmi menga?”*

-*“ Можете ли вы сказать мне, что об этом думает ваш дядя?”*

Rus olimi A. Vejbitskaning ta'kidlashicha, so'roq-buyruq gaplarda Will/Would ning ishlatilishi gapning buyruq mazmunini yumshoqroq ifodalaydi. Ingliz tilida so'roq gaplarning Can/Could bilan ifodalashda birozgina yumshoq buyruq ma'no va ko'proq iltimos ma'no anglashiladi:

-*“Oh...Tinkerbell, can you take Matthew to the yard? I have a bad headache.”*

-*“Oh...Tinkerbel, Matthewni hovliga olib chiqasanmi? Boshim qattiq og'riyapti.”* ( Matthewni hovliga olib chiq! Iltimos Matthewni hovliga olib chiq!)



-“ Ох... Тинкербелл, ты выведешь Мэтью во двор? У меня ужасная головная боль.” (Отведите Мэтью во двор! Пожалуйста, выведите Мэтью во двор.)

-“*Could you drive the children to the park?*” (Drive the children to the park! Please, drive the children to the park.)

-“*Bolalarni parkka mashinada olib borasizmi?*” ( Bolalarni parkka mashinada olib boring! Iltimos, bolalarni parkka mashinada olib boring.)

-“ *Вы водите детей в парк?*”( Отвезите детей в парк на машине! Пожалуйста, отвезите детей в парк.)

Ko’rinib turganidek, lingvistik jihatdan so’roq gap mazmunidagi buyruq yoki iltimos ma’nosi ohangga bog’liq.

Ingliz tilidagi buyruq iborasi “Tell me” so’roq gapning bir nechta turlari bilan birga ishlatiladi. Ushbu ibora bilan so’roq gapning qaysi turi qo’llanilsa ham, tinglovchini javob berishga undaydi. Bu turdagi gaplarni rus va o’zbek tillarida quyidagicha ifodalash mumkin:

-“ *Tell me, Kit, who was this man?*” said Angelo. [ J.Patterson. When the Wind Blows. p.165]

-“*Menga aytil, Kit, bu odam kim?*” dedi Angelo.

-“ *Скажи мне, Кит, кто этот человек? сказал Анджело.*

Nafaqat ingliz tilida, balki, o’zbek va rus tilida ham bu kabi konstruktsiyalar tez-tez uchraydi. Ular majburiy javobni talab qiladigan so’roq-buyruq gaplar hisoblanadi:

-“*Tell me, what the hell are you doing in here?*” Andreosse finally asked. “*Why are you here? What do you want?*” [ J.Patterson. When the Wind Blows. p.174]

-“*Menga ayt, jin ursin, bu yerda nima qilyapsan?*” nihoyat Andreosse so’radi. “*Nega bu yerdasan? Nima xohlaysan?*”

-“ *Скажи мне, какого черта ты здесь делаешь?*” — наконец спросил Андреосс. “*Почему ты здесь? Что ты хочешь?*”

### **Xulosa va takliflar**

Nafaqat o’zbek, balki, rus va ingliz tilidagi badiiy asarlarda ham so’roq-buyruq gaplar juda faol qo’llaniladi. So’roq gapning boshqa turlari kabi so’roq-buyruq gaplar asar qahramonlarining monologik, dialogik nutqlarida ularning o’y-xayollari, kechinmalarini ifodalash orqali aniq yetkazib beriladi. O’zbek, rus va ingliz tilida qo’llaniladigan so’roq-buyruq gaplarning lingvomadaniy aspektini o’rganib shu fakt ma’lum bo’ldiki, so’roq yo’li bilan buyruq ma’nosini ifodalovchi so’roq gaplar so’roq-buyruq gaplar hisoblanadi. So’roq-buyruq gaplar shakl tomonidan so’roq gap



hisoblansa ham, mazmunan buyruqni ifodalaydi. Bundan tashqari, so'roq-buyruq gaplarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish bu uchta til grammatikasini ta'sir kuchini oshirib, so'roq-buyruq gaplarning mazmun-mohiyatini yanada teran anglashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Science and Innovation. International Scientific Journal. ISSN: 2181-3337. 2022.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. Ismoilova S., Xalilova G. (2022) RESEARCH ON THE ISSUE OF QUESTIONS IN LINGUISTICS. Development and innovations in science 1(1), 17-19.
4. Barxudarov L.S., Shteling D.A. "Грамматика английского языка" М. 1963.
5. Alimov Sh.S. Chet tili o'qitish, o'rgatish va o'rganish xususida. Uslubiy qo'llanma. Andijon 2020.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Voqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent, Fan va texnologiya, 2009.
7. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1987. –В.61-65. 2. Абдурахмонов Ғ. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –В.11-14.
8. Бердник Л.Ф. Вопросительно-побудительные предложения в современном русском языке // Рус. яз. в шк. 1989. № 2. С. 88-91.
9. Есперсен О. Философия грамматики. М.: Наука, 1959 452 с.
10. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. –Т. "O'qituvchi". 1966
11. Boboxonova L. Ingliz tili stilistikasi. Т. "O'qituvchi", 1995
12. J. Patterson. When the Wind Blows. Headline Book Publishing. Copyright. 1998.